

O'ZBEKISTONDA MADANIY TURIZMNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Kenjayev Farhod Mamurjon o'g'li

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti o'qituvchisi

Bekzod Yodgorov Dilshod O'g'li

*Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti 2-kurs
turizm va mehmondo'stlik yo'nalish talabasi*

Annotatsiya. *Ma'lumki, madaniy turizm mamlakatning yuzini butun dunyoga namoyon etuvchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu turni rivojlantirish har bir davlatning strategik vazifasi sanaladi. Mazkur maqolada O'zbekistonda madaniy turizm imkoniyatlari, istiqbollari muhokama etiladi.*

Kalit so'zlar: *madaniy turizm, o'lka, millat, urf-odat, mehmonxona.*

KIRISH

Mamlakatimizda madaniy turizm sohaning boshqa turlariga qaraganda ko'proq rivojlanganligini va uni amaliy jihatdan tadqiq etish, kelgusida istiqbolli faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan yondashuvlarni belgilab berish shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Negaki, turizmning boshqa turlari uchun o'ziga sarflangan mablag'larning qoplashi qiyinroq- madaniy turistik mahsulot taklif etilayotgan viloyatlarda erishilayotgan rentabellik ko'rsatgichlari rekreatsiya turizmi taklif etilayotgan viloyatlardagiga nisbatan yirikroqdir. Toshkent, Samarqand, Buxoro, va Xorazm kabi madaniy turizm rivojlangan viloyatlarning har birida turizm bo'yicha erishilayotgan rentabellik ko'rsatgichlari chet eldan kelayotgan sayyohlar hisobiga keyingi yillarda sezilarli ravishda ortdi. Birgina 2018 yilda sayyohlar soni 1,5 milliondan- 4 millionga ortganligi buni yaqqol ko'rsatib beradi. Chunki, madaniy turizmni tashkil etish xarajatlari rekreatsiya turizmini tashkil etishdan ko'ra kam xarajat talab etadi. Turizm borasida so'z yuritilar ekan, ilmiy muhitda madaniy turizmning boshqa turizm turlaridan nimasi bilan farq qilishini aniq asoslab berish masalasi ko'tariladi. Shu sababli, madaniy turizmni maxalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda atroflicha o'rganish shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Ko'plab qadimgi yunon mutafakkirlari inson tarbiyasida sayohatlarning o'rni va ahamiyati haqida fikrlar bayon etishgan. Arastu, Demokrit, Kvintelian). Ularning fikricha, inson tarbiyasida tabiatni o'rganishning ahamiyati katta, tabiatni esa, faqatgina bevosita u bilan muomala etganda o'rganish mumkin. Sayohatlar o'spirinlarni chiniqtiradi, dunyoqarashini rivojlantiradi, mustaqil hayotga tayyorlaydi,

o'z vataniga muhabbatini kuchaytiradi, uni vatan himoyasiga ham jismoniy, ham ruhiy tayyorlaydi, dunyo ko'rgan kishi dono bo'ladi.

Turizmda madaniy omillar boshqa omillardan ustuvor bo'lishi lozim ekan, madaniy turizm deganda nimalarni tushunish lozimligini anglab olish maqsadga muvofiqdir. Madaniy turizm deganda o'zga xalqlarni (o'zga joylarda yashovchilarning) madaniyati, tarixi, etnogafiyasi, arxelogiyasi, folklori hayot tarzi bilan qiziquvchi turistlarning faoliyati tushuniladi. Madaniy turizm mobaynida insonlar o'zga xalqlarning madaniyati bilan yanada chuqurroq tanishish maqsadida mahalliy teatrlarga, milliy san'at va xalq ijodiyoti namoyish etiladigan joylarga ko'proq e'tibor berishadi. Ba'zi turistlar mahalliy aholi istiqomat qiladigan uylarga mehmon sifatida buyurishdan voz kechmaydilar. Buni rezidentlarning madaniyati bilan tanishishning eng yaxshi usuli, deb hisoblaydilar.

Jahon tajribasidan ma'lumki, turistlarning asosiy maqsadi-dunyoni bilish, dunyo xalqlari tarixi, madaniy obidalar bilan tanishish, ularni o'rganish va aloqalarni yanada mustahkamlashdir.

Mutaxassislarning fikricha turizmdan maqsad-dunyo madaniyatini o'rganish, har xil mintaqalarda yaratilgan insoniy qadriyatlar, me'moriy yodgorliklar bilan tanishish, ulardan zavqlanish, inson yaratgan mu'jizaviy asarlardan, ilhomlanish, turli xalqlar madaniyatini qiyosiy o'rganish; muqaddas diniy ziyoratgohlarni ko'rish, ulardan ruhlanish, ibodatni bajo keltirish, insoniy burchni ado etish, hamda shular orqali insonlar orasidagi madaniy- ma'rifiy adoqalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat.

Turistik ehtiyoj (talab)larni qondirish uchun birinchi navbatda turistik resurslar mavjud bo'lishi lozim. O'zbekistonda madaniy turizm talablarini qondiruvchi resurslar ko'plab topiladi. Masalan, Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Turistlar e'tiboriga taklif etilayotgan yodkorliklarning aksariyati XXII- XX asrlarga mansub bo'lsa, ularning orasida IX asr yodgorliklari ham uchraydi. Buxoro shimoli va shimoli- sharqda joylashgan Sarmish, Nurota tog' tizmalarida, Surxondaryo viloyatida ibtidoiy jamoa tuzumiga xos yodgorliklarni ham uchratish mumkin.

Shuningdek, ko'plab qadimiy shaharlar qoldiqlarida olib borilgan arxeologiya qazishma ishlari, tabiiy qo'riqxonalarimizda ko'paytirilayotgan noyob hayvonlar bilan tanishish ham madaniy turizm ixlosmandlarida ko'plab taassurotlar qoldirishi mumkin. Respublikamiz xukumati ushbu salohiyatlarni inobatga olgan xolda ko'plab xayrli tadbirlarni amalga oshirmoqdaki, bu ishlarning natijasi turizmning rivojlanishiga bevosita turtki bermoqda.

Ikkinchi navbatda, madaniy turizmning rivojlanishi uchun (boshqa turizm turlari singari) jozibador resurslar mavjud bo'lishining o'zi yetarli emas. Ya'ni bundan tashqari, maxalliy turistik infratuzilma ham yetarli darajada rivojlangan bo'lishi

lozim. Respublikamizda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida " O'zbekiston havo yo'llari" Milliy Aviakompaniyasi Markaziy Osiyodagi eng yaxshi aviatashuvchi tashkilotga aylantirildi. Toshkent- Buxoro temir yo'l yo'nalishining xizmat darajasi ko'tarildi. Toshkent- Samarqand yo'nalishida shinam tezyurar poezd qatnovi ishga tushirildi. Toshkent- Samarqand temir yo'li butunlay elektrlashtirilib " Afrosiyob" poezdi qatnovi amalga oshirildi.

Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Xorazm kabi viloyatlarda ko'plab yangi zamonaviy mehmonxonalar qurib ishga tushirildi va qurilmoqda, ko'pgina aeroportlar zamonaviylashtirildi. Bundan tashqari Samarqand viloyatidan Surxondaryogacha bo'lgan temir yo'l tarmog'i elektrlashtirildi, Toshkent viloyatidan Qamchibek dovoni orqali Farg'ona vodiysiga o'tuvchi temir yo'l qurilishi nihoyasiga yetkazilishi orqali vodiyning turistik imkoniyati oshib bormoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda madaniy turizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, uning rivojlanishi O'zbekistonning halqaro aloqalari rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Xalqaro aloqalarning rivojlanishi xalqimizni boshqa millatlar bilan yanada yaqinlashtiradi, bu esa, o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi. O'zaro hamkorlikning kuchayishi O'zbekistonga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning yanada o'sishiga olib kelishi shak-shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aleksandrova A.Yu. Turizm geografiyasi, Moskva. Kno RUS.2010
2. Erdavletov S.R. Turizm geografiyasi, tarixi, nazariyasi, usullari, amaliyoti. Olmaota, 2010 yil.
3. Hakimova, M. (2024). РОЛЬ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЛИНГВИСТИЧЕСКУЮ КОМПЕТЕНТНОСТЬ. Modern Science and Research, 3(7).
4. Hakimova, M. (2023). DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCE AMONG STUDENTS. Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences, 2 (12), 52–54.
5. Shamsiddin, X. (2024). THE SUBJECT IS INTERACTIVE METHODS THAT DEVELOP COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS. International Journal of Pedagogics, 4(05), 117-122.
6. Hakimov, S. (2024). DEFINING THE ROLE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGE. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 3(2), 18-20.

7. Расулова, В. Б., Кариева, М. Т., & Ибрагимова, Ш. А. (2021). ИЗУЧЕНИЕ ФОСФОЛИПИДНОГО СОСТАВА МЕМБРАН МИТОХОНДРИЙ ГЕПАТОЦИТОВ ПРИ ГИПЕРГЛИКЕМИИ. POLISH SCIENCE JOURNAL, 238.
8. Юсупходжаева, С. Т. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ И МЕТОДЫ ИХ ПСИХОКОРРЕКЦИИ. In Global Science and Innovations 2020 (pp. 170-174).
9. Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2024). ТРЕВОЖНО-ФОБИЧЕСКИЕ РАССТРОЙСТВА ПРИ СИНДРОМЕ РАЗДРАЖЕННОГО КИШЕЧНИКА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОТЕРАПИИ И ПСИХОФАРМАКОТЕРАПИИ ПРИ НИХ.
10. Alikulovna, R. O. (2022). WOMEN IN UZBEKISTAN-INTELLECTUAL OF GIRLS PROBLEMS OF CAPACITY INCREASE AND THE RESULTS IN THEIR SOLUTION (EXAMPLE OF SOUTHERN REGIONS). INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(09), 15-19.
11. Ergasheva, Y., & Rakhmonkulova, O. (2023). RETRACTED: From the history of small business and entrepreneurship in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 08016). EDP Sciences.
12. Gafurova, S. S. (2025). COMBINATION OF IRRITABLE BOWEL SYNDROME WITH ANXIETY PHOBIC SYNDROME DURING PREGNANCY AND THE EFFECTIVENESS OF MEDICAL PSYCHOLOGICAL SUPPORT IN IT. JOURNAL OF EDUCATION AND SCIENTIFIC MEDICINE, (5).
13. Maxamatjanova, N. (2019). Evaluation of the effectiveness of psychopharmacotherapy and psychotherapy in the complex treatment of systemic lupus erythematosus. Journal of the Neurological Sciences, 405, 125.
14. Алиева, К. К., Ахмедова, Н. А., & Арипов, Ш. Ш. (2022). Прогнозирование риска переломов у женщин фертильного возраста с ревматоидным артритом (Doctoral dissertation, Санкт-Петербург).
15. Fayziyev, O., & Aminboyeva, D. (2023). Qishloq xo 'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(5), 164-167.
16. Xudoyarov A. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari: Monografiya / Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. -304 b.
17. Jiyanov O'P., Xudoyazarov Yu.R. "O'zbekiston-ziyosat turizm markazlaridan biri". Buyuk ipak yo'li chorrasida ziyosat turizmining renessansi (ilmiy maqolalar to'plami). S.: 2019 y. -192 s.